



O‘SPIRINLARNING IJTIMOIIY TARMOQLARDAGI MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI.

Salomov Shamsiddin Saboxiddin o‘g‘li - “Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti” Amaliy psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘spirinlarning ijtimoiy tarmoqlarda muloqot madaniyati va uning ijtimoiy-psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Muloqot madaniyati, axborot almashish va shaxslararo aloqalardagi axloqiy qoidalar muhokama qilinadi. Yoshlar o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlarda muloqot etikasiga rioya qilish uchun psixologik yondashuvlar taklif etiladi hamda o‘spirinlarning raqamli muloqot madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: O‘spirinlar, ijtimoiy tarmoqlar, muloqot madaniyati, ijtimoiy-psixologik ta’sir, onlayn zo‘ravonlik, axloqiy qoidalar.

Аннотация. В данной статье анализируются культура общения подростков в социальных сетях и её социально-психологические аспекты. Обсуждаются культура общения, обмен информацией и этические нормы в межличностных отношениях. Предлагаются психологические подходы для соблюдения этики общения в социальных сетях среди молодежи, а также даны рекомендации по развитию цифровой культуры общения у подростков.

Ключевые слова: Подростки, социальные сети, культура общения, социально-психологическое влияние, онлайн-насилие, этические нормы.

Abstract. This article analyzes the communication culture of adolescents on social networks and its socio-psychological aspects. It discusses communication culture, information exchange, and ethical norms in interpersonal relationships. Psychological approaches are proposed to ensure adherence to communication



ethics among youth on social networks, along with recommendations for developing digital communication culture in adolescents.

Key words: Adolescents, social networks, communication culture, socio-psychological impact, online violence, ethical norms.

Kirish. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar o'spirinlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ularning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi, turli xil onlayn guruhlar hamda jamoalar yaratishi yoki ularga qo'shilishi, turli xil muhokamalar hamda bahs-munozaralarda ishtirok etishi hamda turli guruhlar yoki boshqa ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari bilan raqamli muloqotni amalga oshirishlari ularda muloqot madaniyatini shakllantirish masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda. Chunki ochiq ommaviy axborot vositalari odatda erkin va senzurdan holi bo'lib, yosh avlod, xususan, o'z mobil qurilmalariga ega bo'lgan o'spirinlar uchun erkin muloqot qilish imkoniyatini beradi. Bu esa ayrim yoshlarning muloqot etikasi hamda madaniyatiga rioya qilmasdan turli xil qo'pol so'zlar, jargonlardan foydalanishlari, haqoratli so'zlarni ishlatishi yoki onlayn haqorat hamda zo'ravonlikning qurboniga aylanishlari, bazan esa bunga guvoh bo'lishlariga sabab bo'lishi mumkin. O'spirin yoshlarga muloqot madaniyati, ayniqsa, onlayn muloqot qilishning etikasini o'rgatish, ushbu muhim ijtimoiy qoidalarga amal qilmaslikning yomon oqibatlarini ilmiy tadqiq etish va yoritib berish, ushbu muammoni hal etishga nisbatan psixologik yondashuvlarni taklif etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Muloqot madaniyati shaxslararo munosabatlarda axborot almashish, tushunish va ta'sir o'tkazish jarayonlarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar tizimidir. Ushbu madaniyat shaxsning o'z xulq-atvorini namoyon etish uslubi, boshqalar bilan muomala qilish, fikr va his-tuyg'ularini ifodalash tarzini aks ettiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Muloqot insonning shaxsiyati va ruhiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Muloqotning shakli, mazmuni va uslubi, shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini, ijtimoiy ko'nikmalari va boshqalar bilan



aloqalarini shakllantiradi. Shu sababli, psixolog olim A.A.Bodalevning ta'biricha, "Insonni muloqot orqali tarbiyalashda, uning psixologik ta'sirini oldindan rejalashtirish zarur" [3].

O'spirinlarning ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtirok etishi, ularning o'zaro aloqalarini yangi shakllarda amalga oshirishi, real hayotdagi muloqotdan tubdan farq qiladi. Shuning uchun, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotning ta'siri oldindan o'ylab ko'rilishi zarur.

Birinchi, o'spirinlarning ijtimoiy tarmoqlarda o'zini ifodalash uslubi, boshqalarga ta'sir qilishni qanday amalga oshirishi, ularning o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishi mumkin. Agar ijtimoiy tarmoqlarda salbiy yoki haqoratli xatti-harakatlar ko'payib ketsa, bu o'spirinning ruhiy holatiga, o'ziga bo'lgan ishonchiga va boshqalar bilan muloqotdagi munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ikkinchi, ijtimoiy tarmoqlarda o'spirinlarning turli guruhlar va shaxslar bilan o'zaro aloqada bo'lishlari kuzatiladi. Ushbu muloqot ularning psixologik taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Agar ijtimoiy tarmoqlarda salbiy va manipulyativ xatti-harakatlar ko'payib ketsa, o'spirinlarning xulq-atvori va psixologik holatida buzilishlar bo'lishi mumkin. Ular ijtimoiy tarmoqlardagi turli obrazlar hamda shaxslarning xatti-harakatlari hamda xulq-atvoriga taqlid qilishlari mumkin. Shuning uchun, ijtimoiy tarmoqda to'g'ri va ijobiy axborot almashish va muloqotning sog'lom uslubini shakllantirish o'spirinlarni salbiy ta'sirlardan himoya qiladi.

Uchinchi, ijtimoiy tarmoqda o'zaro hurmat, tinglash va tushunish shaxslararo munosabatlarni mustahkamlaydi. Bu o'spirinlar uchun muhim, chunki ular onlayn muloqotda o'zini qanday ifodalashni o'rganishadi. Ijtimoiy tarmoqlarda salbiy muloqot, haqorat yoki tahqirlash o'spirinlarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy, hurmatga asoslangan



muloqot madaniyatini rivojlantirish o'spirinlarning psixologik farovonligini yaxshilaydi.

O'spirinlarning ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotini boshqarishda, muloqotning psixologik ta'sirini oldindan o'ylab ko'rish va ijobiy muloqot shakllarini rivojlantirish zarur. Bu nafaqat ularning ruhiy holatini yaxshilashga, balki ularning jamiyatda sog'lom va moslashuvchan shaxslar bo'lib shakllanishiga yordam beradi.

Yoshlar muloqot madaniyati atamasi insonlar o'rtasida samarali va madaniyatli muloqotni shakllantirish hamda mustahkamlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik holatni anglatadi. Bu tushuncha, avvalo, yosh avlodning o'zaro muloqot qilish qobiliyati, muloqot davomida o'z fikrini erkin va aniq ifoda eta olishi, boshqalarni tinglashi, shuningdek, ijtimoiy munosabatlarda odob-axloq me'yorlariga amal qilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Samarali muloqot, o'z navbatida, shaxslararo munosabatlarning ijobiy rivojlanishiga, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni tinch yo'l bilan hal etishga, shuningdek, bilim va g'oyalar almashinuvi orqali fikr doirasini kengaytirishga imkon beradi. Shu sababli ham muloqot inson hayotining ajralmas va muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi.

Psixologik manbalarda ta'kidlanishicha, muloqot madaniyati inson shaxsining psixologik xususiyatlari - xarakteri, fe'l-atvori, shaxsiy tarbiyasi, tajribasi, emotsional holati va ijtimoiy tajribasi bilan uzviy bog'liq. Masalan, Makarova [1] o'z tadqiqotlarida muloqot madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida atrof-muhit, pedagogik ta'sir va oila muhitining hal qiluvchi rol o'ynashini qayd etadi. Ayniqsa o'spirinlik davrida bu jarayon sezilarli darajada jadallashadi, chunki bu bosqichda yoshlar o'z shaxsini izlash, mustaqil fikr yuritish va jamiyatdagi o'z o'rnini anglashga intilishadi.

Shuningdek, tadqiqotchi Zichkina [4] yoshlarning muloqot madaniyatini ikki asosiy turkumga ajratadi: normativ va normativ bo'lmagan xatti-harakatlar. Normativ xatti-harakatlar bu — ijtimoiy qabul qilingan, madaniyat me'yorlariga



mos bo‘lgan muloqot shakllari bo‘lib, ular ko‘pincha oila, maktab, do‘stlar va ommaviy axborot vositalari ta‘sirida shakllanadi. Bunga xushmuomalalik, hurmat, sabr-toqat, empatiya va boshqalarni tinglash madaniyati kiradi. Aksincha, normativ bo‘lmagan xatti-harakatlar esa — bu jamiyat tomonidan rad etilgan, odob-axloq me‘yorlariga zid bo‘lgan muloqot uslublaridir. Bunday xatti-harakatlar ko‘pincha e‘tiborsizlik, tajovuzkorlik, haqoratli so‘zlashuv yoki manipulyativ uslublar orqali namoyon bo‘ladi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, shaxsda qaysi turdagi muloqot uslubi ustun bo‘lishi, ko‘p jihatdan uning oilaviy tarbiyasi, pedagogik muhit, psixologik qo‘llab-quvvatlash va atrof-muhit bilan bog‘liqdir. Past darajadagi muloqot madaniyati odamlar o‘rtasida sovuqlik, tushunmovchilik va nizolarga olib kelishi mumkin, yuqori darajadagi muloqot madaniyati esa insonlarda boshqalarni tushunish, hurmat qilish, sog‘lom va samarali fikr almashish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Bugungi kunda yoshlar, ayniqsa o‘spirinlar orasida muloqotning asosiy maydonlaridan biri sifatida ijtimoiy tarmoqlar yetakchi o‘rin egallamoqda. Bu esa yoshlarning muloqot madaniyati shakllanishiga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatmoqda. Avvalgi bosqichlarda oila, maktab va real ijtimoiy muhit asosiy kommunikativ tajriba manbai bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, hozirgi raqamli davrda ushbu rolning katta qismini virtual makon — xususan, ijtimoiy tarmoqlar egallamoqda. Ushbu o‘zgarish esa muloqotning sifati, mazmuni va shaklida jiddiy farqlarni keltirib chiqarmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ijtimoiy tarmoqlarda olib borilayotgan muloqot ko‘p hollarda normativ bo‘lmagan xatti-harakatlar bilan boyitilgan bo‘lib, bu holat o‘spirinlarning muloqot madaniyatini shakllantirishda salbiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Anonimlik, real javobgarlik yo‘qligi, tezkor va nazoratsiz fikr bildirish imkoniyati kabi xususiyatlar ijtimoiy tarmoqlarda agressiv, tajovuzkor, kinoyali va manipulyativ muloqot uslublarining keng tarqalishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday muloqot shakllari esa



yoshlarning empatiya, sabr-toqat, hurmat, tinglash kabi muhim ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarining rivojlanishini cheklaydi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o'spirinlar orasida muloqot madaniyati muammolarini o'rganishda virtual makonda yuz berayotgan kommunikativ jarayonlarni chuqur psixologik tahlil qilish zaruriyati tug'iladi. Ayniqsa, yoshlarning psixologik rivojlanish davriga xos psixologik o'zgarishlar — o'zini namoyon qilishga intilish, tengdoshlar bilan fikr almashish ehtiyoji, mustaqillikka bo'lgan talab ularni ijtimoiy tarmoqlarda faolroq bo'lishga undaydi. Shu bilan birga, bu holat ularning kommunikativ xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va real hayotdagi muloqot uslublarini ham o'zgartiradi.

Shunday qilib, zamonaviy ijtimoiy muhitda, ayniqsa raqamli makonda muloqot olib borayotgan o'smirlarning muloqot madaniyatiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash, ularning normativ yoki normativ bo'lmagan kommunikativ faoliyatini baholash, ushbu faoliyatning shaxs taraqqiyotiga ta'sirini o'rganish bugungi psixologik tadqiqotlar uchun dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Raqamlashtirish va axborotlashtirish davrida o'spirinlarning muloqot madaniyatini o'rganishning dolzarbligi quyidagi omillar bilan izohlanadi:

– zamonaviy jamiyatda shaxslararo muloqotni cheklovchi va o'spirinlarning virtual makondagi tarmoq muloqotiga chuqur sho'ng'ishini ta'minlovchi yangi turdagi muloqot madaniyatining keng tarqalishi;

– raqamli avlodning muloqot madaniyati bilan an'anaviy muloqot madaniyati, jumladan, fikrlash madaniyati, hissiyotlar madaniyati va nutq madaniyati o'rtasidagi chuqur tafovutlar;

– jamiyat va ta'lim tizimining axborotlashtirilishi va raqamlashtirilishi sharoitida o'spirinlar muloqot madaniyatini shakllantirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj, shuningdek, raqamli avlod o'spirinlarining muloqot madaniyatini



rivojlantirish nazariyasining yetarlicha ishlab chiqilmaganligi va bu jarayon uchun samarali pedagogik vositalarning yetishmasligi [2].

Zamonaviy raqamli makon, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar o'spirinlarning shaxsiy rivojlanishi va muloqot madaniyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda yuz berayotgan muloqot shakllari ko'pincha yuzma-yuz muloqotdagi psixologik ifoda, empatiya, javobgarlik kabi ijtimoiy kompetensiyalarni chetlab o'tadi. Bunday muloqotda bevosita hissiy aloqaning yo'qligi, ijtimoiy rollarning susayishi va virtual identifikatsiyaning kuchayishi natijasida o'spirinlarda muloqot madaniyatining buzilishi, shaxslararo munosabatlarda muammolar yuzaga chiqmoqda.

Xulosa va takliflar. O'spirinlarning raqamli muloqot madaniyati ularning ijtimoiylashuv jarayonida asosiy rol o'ynaydi. Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'spirinlar o'zaro muloqotda ko'pincha salbiy emotsiyalarni nazorat qilolmaslik, begona fikrga nisbatan bag'rikenglikning pastligi, ijtimoiy masofaning saqlanmasligi kabi muammolarga duch kelmoqda. Bu esa muloqot madaniyatini ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida shakllantirishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Yuqoridagi nazariy yondashuvlar, ilmiy xulosalar hamda psixolog olimlarning tajribalari hamda fikrlariga asoslanib o'spirinlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda muloqot madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi tavsiyalarni taklif qilamiz:

1) Empatiya va o'zaro tushunishni rivojlantirish: Psixologiya nazariyasida empatiya va o'zaro tushunish ijtimoiy muloqotning asosi sifatida qaraladi. Shuning uchun o'spirinlar uchun empatiya va faol tinglash kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan treninglar va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish zarur. Bu, o'spirinlarning ijtimoiy tarmoqlarda boshqalar bilan muloqotda bo'lishida samarali va hurmatga asoslangan aloqalar o'rnatishlariga yordam beradi.



2) Raqamli savodxonlikni oshirish: Raqamli muloqotning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini yoritgan psixologik manbalarga asoslanib, o'spirinlarga raqamli platformalarda to'g'ri va mas'uliyatli muloqot qilish ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqish lozim. Ushbu dasturlar ijtimoiy tarmoqdagi axborotning haqiqatga mosligi, kiberbullying va onlayn xatti-harakatlarning psixologik ta'siri haqida o'qitishni o'z ichiga olishi kerak.

3) Ijtimoiy tarmoqlarda konstruktiv va axloqiy xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlash: Psixologik nazariyalarda ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy xatti-harakatlar, mas'uliyat va o'zaro hurmat kabi psixologik me'yorlar muhim hisoblanadi. Shuning uchun ijtimoiy tarmoq platformalarida foydalanuvchilar uchun axloqiy qoidalar va yo'riqnomalar ishlab chiqish va bu qoidalarni doimiy ravishda targ'ib qilish zarur. Bu foydalanuvchilarning onlayn muloqotda ko'proq mas'uliyatni o'z zimmasiga olishiga va zararli xatti-harakatlarning oldini olishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Makarova, E. (2018). Comprehension of Written Utterances' Communicative Structure By Russian Learners Of English. The European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. doi:10.15405/epsbs.2018.04.02.22.

2. Tsyvunina A.D. "The communicative culture of adolescents in the era of informatization and digitalization". "European Proceedings of Social and Behavioral Sciences" journal. 2019. DOI: 10.15405/epsbs.2020.08.02.91.

3. Turayeva D.Sh. "Muloqot san'ati inson faoliyatining eng muhim vositasi sifatida" maqola. 2024. "Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar" jurnali. <https://phoenixpublication.net>

4. Zhichkina, A. E. (2018). "Social and psychological aspects of communication on the internet". Flogiston. 2022. <http://flogiston.ru/articles/netpsy/refinf>.